

TA'LIM TIZIMIDA ILK O'SPIRINLARNI KASBGA YO'NALTIRISH MEXANIZMLARI

Nomozova Sabohat Xolboevna

Samarqand viloyati Payariq tumani MMTBga qarashli

78-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida ilk o'spirinlarni kasbga yo'naltirish mexanizmlari, kasb tanlash jarayonining psixologik asoslari hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, ilk o'spirinlik, ta'lim tizimi, psixologiya, qiziqish, qobiliyat, motivatsiya, kasbiy tanlov, diagnostika, ijtimoiy moslashuv.

KIRISH

Ilk o'spirinlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda o'quvchilarda kasb tanlashga oid qarorlar shakllana boshlaydi. Shu sababli ta'lim tizimida kasbga yo'naltirish ishlari aynan ushbu yosh davrida tizimli va maqsadli amalga oshirilishi lozim. Kasbga yo'naltirish mexanizmlarining asosiy vazifasi o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bu jarayonda psixologik diagnostika, testlar, suhbatlar va kuzatuv metodlaridan foydalaniladi.

John Hollandning kasbiy shaxs tiplari nazariyasiga ko'ra, har bir insonning qiziqish va shaxsiy xususiyatlari uning kasb tanlashiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli o'quvchini to'g'ri kasbiy tipga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Kasbga yo'naltirish mexanizmlaridan yana biri — kasbiy axborot berish tizimidir. O'quvchilarga turli kasblar, ularning talablari, mehnat bozori holati va istiqbollari haqida to'liq ma'lumot berish ularning ongli tanlov qilishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida kasbiy motivatsiyani shakllantirish ham muhim mexanizmlardan biridir. O'quvchi o'z kelajagini aniq tasavvur qilishi va tanlagan kasbining jamiyatdagi o'rnini tushunishi zarur.

Donald Superning kasbiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, kasb tanlash jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanadi va shaxsning hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'ladi. Shu

sababli maktab davrida kasbiy yoʻnalishni toʻgʻri shakllantirish juda muhimdir. Kasbga yoʻnaltirishda pedagog va psixolog hamkorligi asosiy rol oʻynaydi. Maktab psixologi oʻquvchilarning psixologik xususiyatlarini oʻrganadi, oʻqituvchilar esa ularning oʻquv faoliyatidagi qobiliyatlarini baholaydi. Ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim mexanizm hisoblanadi. Ota-onalar farzandining qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlashi va unga bosim oʻtkazmasligi kerak, chunki majburan tanlangan kasb koʻpincha muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Shuningdek, amaliy faoliyatlar — kasbga oid ekskursiyalar, uchrashuvlar va treninglar oʻquvchilarning real tasavvurga ega boʻlishiga yordam beradi. Bu ularning kasbiy qarorlarini mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi. Oʻspirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvurlar boʻlmasligi sababli, ular xatolarga yoʻl qoʻyadilar. Tanlangan va tanlanishi zarur boʻlgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. Biroq, bunday koʻngilsizliklarni oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud boʻlib, bu omillarni quyidagicha keltirish mumkin:

- kasblarni oʻrganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va ifoda etish;
- psixologlarning kasblar boʻyicha tashviqot ishlari olib borishi, oʻquvchilarga kasblar yuzasidan maslahatlar berishi;
- psixolog va ota – onalar bilan birga kasbga yoʻnaltirish tadbirlirini koʻrib chiqishi;
- oʻspirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish;
- mehnat taʼlimi darslarida yuqori sinf oʻquvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uygʻotish;
- kasb tanlash usullarini amaliyotga tadbiq qilingan psixodiagnostik usullarini ishlab chiqish;
- kasbga yoʻnaltirish yuzasidan oʻspirinlar orasida targʻibot va tashviqot ishlarini olib borish va psixologik tayyorlash kabi. Kasbga yoʻnaltirish borasida asosan maktab psixologi faoliyat olib borib, oʻquvchilarning avvalo, qaysi kasbga nisbatan qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash maqsadida diagnostikani oʻtkazish va uning statistik tahlilini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Biz tadqiqotlarimiz davomida yoshlarning iqtidorining yoʻnalganligini, faoliyat va kasb – hunar sohalarini aniqlash maqsadida rus psixologi E.

A. Klimovning “ Professional – diagnostik so’rovnomasini” 8-9 –sinf o’quvchilardan iborat 60 ta sinaluvchilarda otkazdik. Sinaluvchilar guruhida o’tkazilgan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi. Zero, atrofdagi yaqinlarini ko’magida tanlangan kasbga intilish davomida, o’quv faoliyati jarayonida ko’pchilik yoshlarda tanlangan kasbdan qoniqmaslik xissi paydo bo’ladi. Kasbga yo’naltirish – shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash – hayot mazmuni haqidagi o’ylari va shaxsiy “Men” tabiati bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Katta yoshdagi maktab o’quvchilarida biror o’quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Tanlangan kasbni o’zlashtirish bilan bog’liq fanga qiziqish ham ortadi. Natijada qiziqqan faniga oid ma’lumotlarni o’qish, to’garak mashg’ulotlarida qatnashish tug’iladi. Bunday imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo’lib, bu esa pedagog va ota – onalardan ham mas’uliyatlik bilan yondashish, teranlikni talab qiladi. Endigina o’sib kelayotgan o’spirin o’quvchilar kasbga qanday yondashadilar? Bu muammo ko’pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan, turmush tajribasidan ma’lumki, odatda ilk o’spirinlik yoshidagi o’g’il – qizlar hayotda mustaqil qadam tashlash to’g’risida aniq, asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli, kasb tanlash davrida oqilona va to’g’ri yo’l tutishni bilmay dovdirab yoki tavakkaliga ish tutadilar. O’zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga ojiz bo’ladilar. Natijada, noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. Yuqori sinf o’quvchilarining ba’zilari kasb tanlashda yaqqol ko’zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar va o’zlarida biror bir maqsadga yo’nalgan g’oyalar mavjud emas. Aynan atrofdagi xatti – harakatlarning xuddi shunday ta’siri ularda biror bir kasbni tanlab, shu borada o’quv faoliyatini amalga oshirayotgan davrda o’zi tanlangan kasbkorlikka nisbatan ikkilanishlar, umidsizliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham yoshlarni kasb tanlashda pedagog va ota – onalardan ularning qobiliyatlari, layoqatiga qarab, ya’ni individual xususiyatlaridan kelib chiqib kasbga yo’naltira olishni talab qiladi. Bugungi fan texnika va ijtimoiy taraqqiyot davrida yoshlarni jamiyatni barpo etishda ishtirokini ta’minlash bugungi kun maktabini har qachongidan ham muhim vazifasidir.

Ma'lumki, kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'ri yo'lni to'ishga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlari yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb – hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi, shuningdek, maktablarda “Kasbim faxrim”, “Kasbim kelajagim dasturi” kabi mavzularda seminar - trening mashg'ulotlari, suhbatlar va munozaralar o'tkazilishi, uchrashuvlar, kasb – hunarga oid ko'rgazmalar tashkil etilishi, o'quvchilarda kasb tanlashga qiziqish hamda ishtiyoqini uyg'otadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish ishlari maktab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ilk o'spirinlarni kasbga yo'naltirish mexanizmlari psixologik diagnostika, kasbiy axborot, motivatsiya shakllantirish va amaliy tajriba asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda maktab, oila va psixologik xizmat hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Klimov E. A. Puti v professionalizm. – M.: Filinta, 2003.
2. Karimova V. M. Psixologiya.- T. : 2000.
3. Nishonova Z. T. , Alimbaeva M. V. Psixologik xizmat. –T.: Fan va texnologiya markazi, 2014.
4. G'oziev E.E. Psixologiya. Toshkent, 2008
5. ZIYO.NET